Then, too, his attitude, in spite of the money ***which had first blinded them****, was peculiar. He really did not carry himself like a married man* (J.G. 138 p.).	*Buning ustiga, garchand saxiyligi dastlabki paytlarda Gerxardtlarning* ***ko‘zini tindirib qo‘ygan bo‘lsada****, Lester ham o‘zini g‘alati tutardi.* (Jenni Gerxardt. 147-bet).
6.To have claim on somebody. Should he forsake Jennie?–that thought also, came to him. ***She had no claim on him.*** She could make no protest (J.G.144 p.).	***6. Kimgadir osilib olmoq.*** Bunda Jennini qurbon qilishga to‘g‘ri kelmasmikan? Bu narsa ham uning hayolig akeldi. ***Jenni unga osilib ololmaydi*** (J.G. 154-bet).
7.To kiss one’s feet. ***She could have kissed Lester's feet*** *for his goodness to her family* (J.G. 162 p.).	***7. Oyoqlarini o‘pishga ham tayyor bo‘lmoq.*** *Oila a’zolariga bunchalar yaxshilik qilayotganidan hozirda Lesterning* ***oyoqlarini o‘pishga ham tayyor edi*** (J.G. 146-bet).
8.Put one’s nose in (N 229). “Damn him!” said Lester fiercely. “What the devil does he mean by ***putting his nose in my private affairs***? (J.G. 303 p.).	***8.Birovning ishiga tumshug‘ini tiqmoq.*** *–Ming la’nat!–Lester yomon so‘kindi.–Mening ishlarimga* ***tumshug‘ini tiqishga*** *qanday jur’at etdi!* (J.G. 279-bet).

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollardan ayon bo‘lmoqdaki, mahoratli tarjimon Erkin Nosirov buyuk amerika adibi T.Drayzerning “Jenni Gerxardt” romanida uchraydigan frazeologizmlarni o‘ta nozik did bilan o‘zbek tilida jaranglata olgan. Zero, iboralar badiiy matn tarkibida qahramon nutqini, psixologik holatini, muallif bayonini bezovchi muhim badiiy til unsure hisoblanadi. E.Nosirov mazkur romanni o‘zbekchalashtirishda rus tarjimonlarining tarjima nashrlariga suyanib, Drayzer matnini qaytadan o‘zbek tilida muvaffaqiyat bilan yaratishga erishgan.

Amerikaning mashhur yozuvchilaridan biri U.Folkner: “Rus adabiyoti Gogolnig “Sheneli”dan chiqqani kabi, biz Drayzerning romanlaridan chiqqanmiz”, deb aytgan edi [6;320-b.].

Mahoratli mutarjim Erkin Nosirov Amerika adabiyotining yirik romannavisi T.Drayzerning ko‘plab romanlarini tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga uning nomini va yetuk badiiy asarini tanitishga katta hissa qo‘shdi.

Zahmatkash tarjimon Erkin Nosirov tarjimaning ijodiy jarayon ekanini to‘g‘ri anglagan holda roman matnida uchraydigan yuzlab frazeologizmlarni teng ekvivalentlik, kalkalab tarjima qilish, uslubiy moslashtirish, qisman tarjima usullaridan foydalanib, adekvatga yaqin tarjimani yaratishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Dreiser T. Jennie Gerhardt. United States of America Copyright, by Boni & Liveright, Inc. Printed in the, 1911, 448 p.
(2). Драйзер Т. Женни Герхардт. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1982, 324 бет.
(3). Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Москва, “Русский язык”, 1984, 942 с.
(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005, 352 bet.
(5). Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 232 бет.
(6). Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akadem nashr”, 2024, 320 bet.

Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna (Nukus Innovatsion instituti “Filologiya va tillarni o‘qitish” kafedrasi assistent o‘qituvchisi)

EMOTSIYALARNING O‘ZIGA XOSLIGI, KONSEPTUALLASHUV JARAYONLARI

Annotatsiya. *Maqolada konsept atamasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan hamda u haqida turli olimlarning qarashlari, emotsiya, emotsionallik konseptlari va konseptuallashuv jarayonlari, ijobiy emotsional konseptga namuna va uning lug‘aviy ma’nolari hamda o‘sha emotsional birlikni kontekstda foydalanilgan namunalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *konsept, lingvomadaniyatshunoslik, semantik birlik, emotsiya, emotsionallik, emotsional konsept, kognitiv-semantik, sinonimik qator, verballashuv.*

Абдусаттарова Шахло Тоштемировна (Нукусский инновационный институт, ассистент преподавателя кафедры "Филология и преподавание языков")

УНИКАЛЬНОСТЬ ЭМОЦИЙ, ПРОЦЕССОВ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассмотрен термин концепт и взгляды на него различных ученых, понятия эмоции, эмоциональности и процессов концептуализации, пример позитивного эмоционального концепта и его словарные значения, а также примеры использования этой эмоциональной единицы в контексте.*

Ключевые слова: *концепт, лингвострановедение, семантическая единица, эмоция, эмоциональность, эмоциональный концепт, когнитивно-семантический, синонимический ряд, вербализация.*

Abdusattarova Shakhlo Toshtemirovna (Nukus Innovation Institute assistant teacher of the department "Philology and language teaching")

THE UNIQUENESS OF EMOTIONS, CONCEPTUALIZATION PROCESSES

Annotation. *The article focuses on the term concept and the views of various scientists about it, the concepts of emotion, emotionality and conceptualization processes, an example of a positive emotional concept and its dictionary meanings, and examples of that emotional unit used in the context.*

Key words: *concept, linguistic and cultural studies, semantic unit, emotion, emotionality, emotional concept, cognitive-semantic, synonymous series, verbalization.*

Kirish. Tilshunoslikda "konsept" atamasi o'tgan arsning ikkinchi yarmida muomalaga kirgan bo'lib, u olam to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni ma'lum darajada tartibga soluvchi lisoniy hodisa. Shuni qayd etish mumkinki, "konsept" atamasi tilshunoslikka falsafa fanidan o'zlashtirilgan bo'lib, dastlab, U.Gobs, U.Okkam, P.Abelyar kabi olimlarning ishlarida kuzatish mumkin. Konsept atamasining tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik tilshunos N.Xomskiyning xizmati beqiyos, u o'zining "Universal Grammar" asarida til kognitiv faoliyat mahsuli ekanligini ta'kidlagan. Konsept inson ongida gavdalanadigan va zarur ma'lumotni jamlovchi universal va xususiy lingvistik hodisa degan. Tilshunoslikda ilk marotaba konsept atamasi 1928-yilda S.N.Askaldov tomonidan yozilgan "Konsept va so'z" deb nomlangan maqolasida foydalanilgan [Baxronova. 2019;62].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Olimlar konsept termini bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va bu borada turlicha qarashlarini bildirgan. V.A.Maslova konsept bu lingvomadaniyatshunoslikda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, muayyan madaniyat egalari tomonidan tavsiflanuvchi semantik birlik degan fikrni ilgari surgan bo'lsa [Маслова В. 2004;296], E.S.Kubryakova konseptga inson ongi, bilimi va ruhiy kechinmalarida namoyon bo'luvchi tafakkur mahsuli deb ta'rif bergan [Кубрякова.1996;90]. Popova Z.D. hamda Sternin I.A. konsept bu keng darajada o'rganilishi kerak bo'lgan murakkab mental birlik va o'zlashtirilgan bilimning asosiy qismi ekanligini [Попова З., Стернин И. 2000;4].

Konsept atamasi to'g'risida o'zbek tilshunoslari ham o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Tilshunos Sh.Safarovning fikricha, konsept zamiridagi mental struktura moddiy ko'rinishga ega emas, balki u aqliy idrok jarayonida paydo bo'ladigan tasavvuriy hodisa deb hisoblanadi [Safarov Sh. 2006;41]. Xudoyberganova konsept ko'p qirrali mental birlik va u bir vaqtda psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarda namoyon bo'ladigan birlik, degan fikrni olg'a surgan [Xudoyberganova D. 2013;13]. Ashurova U. har qanday tushunchani konsept deb atash noto'g'ri. Madaniyat muhitida muhim ahamiyat kasb etadigan tushunchalargina konsept bo'la oladi, degan xulosaga keladi [Baxronova D. 2019;64].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, konsept – bu har bir insonning tashqi olamni idrok etishda tasniflanuvchi, har bir xalq ongida mental tarzda namoyon bo'ladigan, til sohiblarining milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, etnik xususiyatlarini o'zida ifoda etuvchi birlik hisoblanadi. Shaxslararo muloqotni shakllantirish uchun, avvalo, konseptlarni voqelantirish, ya'ni til vositasidan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Tildagi konseptlar, so'z, so'z birikmasi, turg'un birikmalar, hatto butun matn orqali verballashuvi mumkin. Qayd etilgan matnlarning verballashuvida emotsiyalarni faollashtirish muhim o'rin tutadi. Emotsiya konsept sifatida insonlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'luvchi verbal va noverbal tartibga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Insonning borliqqa bo'lgan munosabatida paydo bo'ladigan kechinmalari hissiy emotsiyalar doirasini tashkil etadi. Emotsiyalar inson faoliyati, uni o'rab turgan olam bilan o'zaro munosabatda hamda jamoaviy faoliyati va shaxsning ijtimoiylashuvi asosida paydo bo'ladi. Darhaqiqat, hissiy emotsiya psixologik jarayon bo'lib, ijtimoiylashuv, jamoaviy psixologiyaning rivojlanishiga ta'sir

koʻrsatadi. Shu sababli hissiy emotsiya psixologiya fanining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tilshunoslar insonning fundamental emotsiyalarini belgilab olish masalasini ilgari suradi va muayyan til yoki turli xil tillar doirasidagi emotsiyalarni qiyoslash asosida oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida quvonch, hayrat, lazzatlanish, qiziqish, hayajon, ajablanish kabi ijobiy emotsiyalarni universal hodisa sifatida qbul qilishadi. Emotsiyalarning oʻziga xosligi, konseptuallashuv jarayonlarini oʻrganishdan avval, ushbu tushunchalarni alohida koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Emotsiya (lotincha–tebrantiraman, toʻlqinlantiraman) – bu mavjud yoki mumkin boʻlgan vaziyatlarga va obyektiv dunyoga subyektiv baho berish munosabatini ifodalovchi psixik jarayon. Emotsiyalar turli lingvomadaniyatga xos leksemalar bilan ifodalanadi. Emotsional – emotsiya jihatdan boʻlgan, emotsiyaga oid, his-tuygʻuni ifodalovchi. Emotsionallik–emotsional belsi, xususiyat, shunday belgi xususiyatga egalik.

Emotsional konsept–bir til doirasida emotsional konseptlarning milliy oʻziga xosligini koʻrsatib beruvchi tushuncha.

Emotsiyalar konseptuallashuvida ikkita oʻzaro bogʻlangan aspekt farqlanadi.1) emotsional kechinmalarning bevositaligi; 2) subyektning obyektga hissiy munosabati [OʻTIL. 2006;592].

Tahlil va natijalar. Ingliz tiliga oid boʻlgan *happy* konsepti ijobiy baho kategoriyasiga ega boʻlib, quvonch, shodlik, sevinch kabi tushunchalarni ifodalovchi emotsional birlikdir. Uning lugʻoviy maʼnolari quyidagicha:

happy *adj* –sifat soʻz turkumiga oid boʻlib *xursand, mamnun, shod, baxtli* degan maʼnolari mavjud.

1) feeling pleasure and enjoyment because of your life, situation, etc. Ushbu konseptdan inson hayotidan yoki muayyan vaziyatdan mamnunlik va shodlik hissini ifodalash uchun foydalaniladi. Masalan: She is really *happy* playing with her lovely toy. Qizaloq sevgan oʻyinchogʻi bilan oʻynab, oʻzini, haqiqatdan, baxtiyor his qiladi. Bunda inson vaziyat natijasida baxt hissini tuyushi koʻrsatilgan;

2) showing or causing feelings of pleasure and enjoyment. Soʻzlovchi *happy* konseptidan baxtiyorlik hissini koʻrsatish yoki sababini ifodalash uchun ham foydalanish mumkin. Masalan: She had a very *happy* childhood. I was glad the movie had a *happy ending*. Keltirilgan misollar "Uning bolaligi xursandchiliklarga boy boʻlgan", "Kino baxtli yakun topganidan xursandman" deb tarjima qilinadi. Insonning zavqli, quvonchli, baxtli paytdagi vaziyatdagi holatini ifodalash uchun happy soʻzidan foydalaniladi. Bunda yozuvchilar ham asar qahramonlari nutqidagi hodisalarni baholash uchun hamda oʻquvchiga personajning xursand boʻlgan vaziyatlarini yetkazib berish uchun happy sifatidan foydalanadi. Masalan: *There is something curiously warm, hopeful about light pouring from an open door into a dark place. Voices came to him, laughing* ***happy*** *voices, the child's gleeful* (Rendel R. 110);

3) very willing to do something usually followed by *to + verb happy* soʻzi to infinitiv shakli oldidan kelib biror ish harakatni bajarishga kuchli xohishni ifodalab keladi. Misollar: *His daughter's car was parked at the kerbside. He told himself he was always* ***happy*** *to see his children but just at this moment, this evening* [Rendel R. 51];

4) used as part of a greeting or wish for someone on a special holiday or occasion. Insonlar ingliz tilida bir-birlarini maxsus hodisalar yaʼni, tugʻilgan kun, bayram tadbirlarda bir-birlarini tabriklayotgan paytda *happy* soʻzidan keng foydalanadi. Masalan: *Happy birthday, Happy Women's Day, Happy Anniversary. S*oʻzlovchi tugʻilgan kun, xotin-qizlar kuni hamda yubiley kuni bilan tabriklash uchun keltirilgan birikmalardan foydalanadi;

5) sometimes used before a noun: fitting or suitable. Bazan ushbu termindan otning aniqlovchisi sifatida foydalanilib, bu paytda *mos, munosib, toʻgʻri keladigan kabi maʼnolarni ifodalaydi.* Masalan: *a happy choice of words.* Ushbu gapda *soʻzlarni toʻgʻri tanlash* maʻnosini ifodalab kelingan [MWALED. 2008; 748].

Xulosa va takliflar. Tildagi ifodalanayotgan baʼzi birliklar lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlariga koʻra, suhbatdoshlarning kayfiyati hissiyotlari bilan bogʻliq boʻlgan turli xil emotsional holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Soʻnggi paytlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki emotsional semantika muammolari eng yuqori bosqichda turuvchi masalalardan biri sifatida eʼtirof etiladi. Emotsional birliklarni konteksda qoʻllash matn mazmunini oʻquvchiga yuqori darajada yetkazib berish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, asarning yuqori saviyaga ega ekanligini koʻrsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi taʼsvirida konsept va konseptosfera. Xorijiy filologiya, 2019, 68-bet.

(2). Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. Под ...istina.msu.ru publications book. Издательство Московского государственного университета. Москва, 1996. 90 с.

(3). Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. Учеб. пособие, М., "Наука", 2011, 296 с.

4). Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. Воронеж, изд-во Воронеж, ун-та, 2000, 30 с.

(5). Ruth Rendell End in tears a chief inspector wexford mystery. 122 p.

(6). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, "Sangzor", 2006, 46-bet.

(7). Xudoyberganova antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, "Fan", 2013, 286-bet.

(9). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 1-jild, 2006, 2-jild, 2006, 2008, 592-bet.

(10). Webster's Learners D SESS: 48 OUTPUT. Mon Jul 14 2008 /data31/webster/dict/mw−learners−dictionary/001−fm−copyright, 2032 p.

Abdullayeva Muxtasar Abdulla qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dots.v.b.,PhD)

O'ZBEK BADIIY ASARLARIDA IDIOMATIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI

Annotatsiya. *Hozirgi tilshunoslikda tillar o'rtasidagi munosabatlarni ma'no va ijtimoiy-madaniy voqelikni uzatishning asosiy vositalaridan biri sifatida o'rganish dolzarb mavzulardan biridir. Zamonaviy tilshunoslik tomonidan o'rganilayotgan ko'plab muammolar orasida "tarjima" yoki "tarjima faoliyati" deb ataladigan tillararo nutq faoliyatining lingvistik jihatlarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Aynan tarjima orqali biz tarjimonlar yordamida uning talqiniga ega bo'lgan boshqa madaniyatlarning ma'no tizimlariga kirishimiz mumkin. Tarjima bir tilda ifodalangan narsani boshqa til vositasida to'g'ri va aniq ifodalashni nazarda tutadi. Ushbu maqola tarjimashunoslik sohasida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, tarjimashunoslik, adabiyot, madaniyat, frazeologik birliklar.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДИОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация*. В современном языкознании изучение отношений между языками как одного из основных средств передачи смысла и социокультурной действительности является одной из актуальных тем. Среди множества проблем, изучаемых современной лингвистикой, важное место занимает изучение лингвистических аспектов межъязыковой речевой деятельности, называемое «переводом» или «переводческой деятельностью». Именно посредством перевода мы можем получить доступ к смысловым системам других культур с помощью переводчиков, которые их интерпретируют. Перевод – это правильное и точное выражение того, что выражено на одном языке, на другом языке. Данная статья посвящена проблемам в области переводоведения и их устранению.*

Ключевые слова: *перевод, переводоведение, литература, культура, фразеологизмы.*

THE USE OF IDIOMATIC EXPRESSIONS IN UZBEK FICTION AND THEIR TRANSLATIONS INTO THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation. *In modern linguistics, the study of relations between languages as one of the main means of transmitting meaning and socio-cultural reality. Among the many problems studied by modern linguistics, the study of linguistic aspects of interlingual speech activity, which is called "translation" or "translation activity", occupies an important place. It is through translation that we can access the meaning systems of other cultures with the help of translators who interpret it. Translation refers to the correct and precise expression of what is expressed in one language in another language. This article is devoted to problems in the field of translation studies and their elimination.*

Key words: *translation, translation studies, literature, culture, phraseological units.*

Kirish. Xalqimizning sevimli adibi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning o'lmas asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Jumladan, "Navoiy" romani ham Ovrupaning qator tillariga o'girilgan. Adibning bu asaridan olingan ayrim boblari ingliz tiliga ham tarjima qilingan. Quyida biz shu tarjimalar haqidagi mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Tadqiqotning metodologiaysi. Oybekning, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi xizmatlari benixoyadir. Bu borada u, hech mubolag'asiz, yetuk navoiyshunoslar qatorida turadi. Uning Navoiy dunyoqarashi, lirikasi, "Xamsa" tahliliga bag'ishlangan tadkikotlari navoiyshunoslikning oltin fondini tashkil etadi. Ayni paytda yetuk alloma Sultonmurod, Fazliddin, noyob va iste'dod sohibi Behzod, Xondamir,